**"Tasdiqlayman"**
**O'zbekiston Respublikasi**
**madaniyat vaziri**

**__________ O. Nazarbekov**

**2025 yil «___» ____________**

# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHASI KONSEPSIYASI

## I. Loyihaning tavsifi

| | |
|---|---|
| Loyihaning nomi: | G'allaorol tumani, Lalmikor MFY hududida joylashgan 35-son "Yashnaobod" madaniyat markazi binosini DXSh asosida ta'mirlash va jihozlash hamda xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish |
| Tarmoq nomi: | Madaniyat va san'at |
| Loyiha turi: | madaniyat markazini ta'mirlash va jihozlash hamda xususiy ta'lim muassasasi tashkil qilish |
| Xususiy sherik tomonidan bajariladigan ish hajmi | 10 mlrd so'mga madaniyat va ta'lim muassasasini qurish, jihozlash va zamonaviy binoda faoliyatini tashkil qilish |
| Davlat sherigi: | O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi |
| Loyiha joylashgan joyi: | Jizzax viloyati, G'allaorol tumani Lalmikor MFY. |

## II. Dastlabki tanlov natijalari

| DXSh loyihasining dastlabki tanlovi natijalari haqidagi batafsil ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting. |
|---|
| O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrdagi 720-son qaroriga asosan Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, Lalmikor MFY hududida joylashgan, 35-son "Yashnaobod" madaniyat markazini ta'mirlash va jihozlash, o'quv markazlari, madaniy marosimlar zali, umumovqatlanish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil qilish loyihasi ishlab chiqildi.<br>Aholiga madaniyat va san'at yo'nalishida sifatli xizmatlar ko'rsatish hamda madaniy xizmatlar yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ko'p tarmoqli madaniyat va xizmat ko'rsatish markazini ta'mirlash va jixozloash hamda foydalanish loyihaning asosiy maqsadi hisoblanadi.<br>Xususiy tadbirkor "Islomjon-Madad-Nur" MChJ tomonidan ishlab chiqilgan mazkur loyiha Madaniyat markazda musiqa va san'at yo'nalishidagi zamonaviy to'garaklar, tadbirlar zali, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish muassasasi tashkil etish. Shu bilan birga aholiga keng turdagi madaniy va maishiy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish hamda madaniyat faoliyatiga to'siqlarsiz boshqa tijoriy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini tashkil etish loyihasi Madaniyat vazirligi tomonidan ma'qullandi.<br>Loyiha aniq ijtimoiy (aholiga sifatli madaniyat va san'at xizmatlarini ko'rsatish), iqtisodiy va infratuzilmaviy vazifalarni (boshqa maishiy xizmatlar ko'rsatish uchun zamonaviy bino va inshootlar qurilishi) muammosini hal etishga qaratilgan. |

## III. DXSh loyihasining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

| Qo'shimcha ma'lumotlar | |
|---|---|
| 1. | Loyihani baholash hujjatlari tayyorlanganmi?:<br><br>Ha ☐ Yo'q ☒<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting.<br>*Loyiha baholash hujjati tayyorlanmoqda.* |
| 2. | Loyihaning quyidagilardan biriga yoki bir nechtasiga kiritilganligini ko'rsating:<br><br>Investitsiya dasturi ☐<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni yoki qarori ☒<br>Vazirlar Mahkamasi qarori ☐<br>Boshqa ☐<br>Batafsil ma'lumotlar hamda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting:<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrdagi "Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-468-son qarori |
| 3. | Loyiha iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumat tomonidan belgilangan maqsadlar yoki strategiyalarga erishishga hissa qo'shadimi?<br><br>Ha ☐ Yo'q ☒<br><br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, ma'lumot bering. |
| 4. | Loyiha Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish sohasidagi qaysi maqsadlariga qaratilgan?<br>Mazkur loyiha BMTning BRM(Barqaror Rivojlanish maqsadlari)<br><br>8-maqsadga ya'ni Munozara va inklyuziv iqtisodiy o'sish: Barqaror iqtisodiy rivojlanish va bandlikni qo'llab-quvvatlash.<br>Maqsadning asosiy yo'nalishlari:<br>1. Barqaror iqtisodiy o'sish.<br>2. Munosib ish o'rinlari yaratish.<br>3. Yoshlar bandligini ta'minlash.<br>4. Resurslarning samarali ishlatilishi.<br>5. Innovatsiya va texnoligiyalarni rivojlantirish. |
| 5. | Ushbu loyiha davlat xaridlari jarayoni doirasida amalga oshirish uchun budjet tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilganmi?<br><br>Ha ☐ Yo'q ☒<br><br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, ma'lumot bering. |

<table>
<tr><td>6.</td><td colspan="3">Xususiy sherikning loyihani amalga oshirish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq olishga ruxsat beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish zarurati bormi?<br><br>Ha ☐ Yo‘q ☒<br><br>Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, ma’lumot bering.</td></tr>
<tr><td>7.</td><td colspan="3">Xususiy sherikning loyiha doirasida ko‘rsatadigan yakuniy xizmatlarini tasvirlab bering:<br>– Madaniyat markazi to‘garaklari (milliy va zamonaviy cholg‘u asboblarini o‘rgatish, raqs, xonandalik, aktyorlik, tasviriy san’at)<br>– ta’lim xizmatlari<br>– tadbirlar va marosimlar o‘tkazish uchun zal (ikki tomon kelishuvi asosida foydalaniladi)<br>– Boshqa xizmat ko‘rsatish faoliyati</td></tr>
<tr><td rowspan="3">8.</td><td>A) Loyihaning qiymati<br>9 500 mln.so‘m<br>(852 272 AQSh dollar)</td><td>B) Loyiha ekspluatatsiya xarajatlari<br>500 mln.so‘m<br>(40 584 AQSH dollar)</td><td>V) Umumiy xarajatlar<br>10 000 mln. so‘m<br>(811 688 AQSh dollar)</td></tr>
<tr><td colspan="3">2025-yil 19-sentyabr holatida markaziy bank kursi 1 AQSh dollar-12 320 so‘m</td></tr>
<tr><td colspan="2">G). DXSh bitimining amal qilish muddati:<br><u>25-yil</u><br>Aniq ma’lumot bo‘lmasa, oraliq muddatni belgilang:<br>3-10 ☐ 11-20 ☒ 21-30 ☐ 30 ☐</td><td>D) Loyihani amalga oshirish muddati:<br>2,5-<u>yil</u><br>Aniq ma’lumot bo‘lmasa, oraliq muddatni belgilang:<br><10 ☐ 10-30 ☒ >30 ☒</td></tr>
<tr><td>9.</td><td colspan="3">a). Loyihaning daromad manbasini ko‘rsating:<br>Foydalanganlik uchun to‘lov ☒<br>Erkin foydalanilishi uchun to‘lov ☐<br><br>b) Foydalanganlik uchun to‘lov/ Erkin foydalanilishi uchun to‘lov<br>Foydalanganlik uchun to‘lov:<br>- Madaniyat va san’at tugaraklari<br>- Madaniy tadbir va marosimlar o‘tkazish zali<br>- savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish<br>- Umumiy ovqatlanish xizmatlari<br><br>Erkin foydalanish uchun to‘lov:<br>Daromadlar taqsimotini ko‘rsating:<br>Davlat mulkidan foydalanganlik uchun to‘lov ☐<br>v)</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | Qo‘shimcha foyda taqsimoti ☐<br>DXSh loyihasining tashabbuskorini belgilang:<br>Davlat tashabbuskori: ☐<br>Xususiy tashabbuskor: ☒ |
| | g) DXSh to‘g‘risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g‘olibidan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar ishtirokchisidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda bir martalik to‘lov: <u>Mavjud emas</u> |
| 10. | Xususiy va davlat sherigi o‘rtasidagi xatarlarni taqsimlashda taklif qilingan o‘zgarishlarni belgilang |

| **Xavf yoki xatarlar turlari** | **Davlat sherigi** | **Umumiy** | **Xususiy sherik** | **Xatar taqsimoti asosi** | **Izoh** |
|---|---|---|---|---|---|
| Loyiha hujjatini ishlab chiqish bilan bog‘liq xatarlar | | | ● | | |
| Dizayn va texnologiyalar ning eskirish xavfi | | | ● | | |
| Yashirin nuqson xavfi | | | ● | | |
| Yer ajratish va ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar | ● | | | | |
| Moliyaviy xatar | | ● | | | |
| Qurilish bilan bog‘liq xatar (aniq bo‘lmagan) | ● | | | | |
| Qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan xatar (aniq bo‘lgan) | | | ● | | |
| Ishga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar | | ● | | | |
| DXSH to‘g‘risidagi bitim tuzilganidan keyin loyihaga kiritiladigan o‘zgarishlar (davlat sherigi tarafidan) | ● | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | DXSH to‘g‘risidagi bitim tuzilganidan keyin loyihaga kiritiladigan o‘zgarishlar (xususiy sherik tarafidan) | | | ● | | |
| | Soliq bilan bog‘liq xatarlar | | | ● | | |
| | Tariflarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan xatarlar | | | ● | | |
| | Loyihaning sug‘urtasiga oid xatarlar | | | ● | | |
| | Qonunchilikdagi o‘zgarishlarning loyihaga salbiy ta’siri xatarlari | ● | | | | |
| | Litsenziya guvohnomalar berilishi kechikishi | | ● | | | |
| | Xususiy sherikka kelishilgan tovarlarning kechiktirilishi | | | ● | | |
| | Davlat sherigiga kelishilgan to‘lovlarning kechiktirilishi (tegishli joylarda) | | | ● | | |
| | Siyosiy beqarorlik xatarlari | ● | | | | |
| | Ta’mirlash va rekonstruksiyaga oid xatarlar | | | ● | | |
| | Mulkni rekvizitsiya qilish | ● | | | | |
| | Operatsion xatarlar | | | ● | | |
| | Ekologik/ijtimoiy xatar (ekspluatatsiya bilan bog‘liq) | | | ● | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Operativ faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar | | • | | | |
| | Talab bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar | | | • | | |
| | Samaradorlik ko‘rsatkichlarini bajarish bilan bog‘liq xatarlar | | | • | | |

11. Agar xususiy sherik ko‘rsatilgan bo‘lsa, quyidagi ma’lumotlarni taqdim eting.

a) Xususiy tashabbuskor nomi: “Islomjon Madad-Nur” MChJ
b) Kompaniya ro‘yxatdan o‘tgan davlat nomi : O‘zbekiston Respublikasi
v) Aksiadorlar va kompaniya egasi: Islomjon Ashurmatov
g) Bog‘lanish uchun ma’lumot:
d) Biznesning qisqacha mazmuni: Ta’lim va xizmat ko‘rsatish faoliyati
e) Xuddi shu sohada shunga o‘xshash loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tajriba: mavjud emas.
yo) Korxona Xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanib keladi.
z) Kompaniyani qayta tashkil etish, tugatish va (yoki) bankrotlik bosqichida emasligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish: soliq.uz, MIB.uz, xarid.uzex.uz portallari orqali tekshirildi.

Xususiy tashabbuskorning malakasini tasdiqlovchi qo‘shimcha hujjatli dalillarni, shu jumladan, kompaniya nizomi, yillik hisobotlarni va oxirgi uch yil uchun audit qilingan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarning tasdiqlangan nusxalarini taqdim eting.

12. Har bir bosqich uchun tahminiy / rejalashtirilgan sanani ko‘rsating:

| | Bosqich | Sana | | Bosqich | Sana |
|---|---|---|---|---|---|
| a) | DXSh loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash | 2025 yil 3-chorak | d) | Muzokaralar va DXSh to‘g‘risidagi bitimni imzolash | 2025 yil 4-chorak |
| b) | Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish (masalan: tender hujjatlari) | 2025 yil 4-chorak | e) | Maxsus loyiha kompaniyasini (SPV) tashkil etish | - |
| v) | Dastlabki malakani aniqlash (RFQ) | 2025 yil 4-chorak | yo) | Moliyaviy yakunlash | Bitim tuzilgandan so‘ng |
| g) | G‘olibni saralash(RFP) | 2025 yil 4-chorak | | | |

13. Joriy holatda aholidan va/yoki davlat budjetidan mazkur xizmatga ajratiladigan yalpi mablag‘:

Mablag‘ ajratilmagan

| | |
|---|---|
| 14. | Ushbu loyiha davlat tarafidan amalga oshirilganda, budjetdan ajratilishi kutilgan taxminiy mablag‘ (bunga kapital xarajatlari va boshqa boshqaruv xarajatlari kiradi.)<br>Ushbu loyiha davlat tomonidan amalga oshirilganda taxminiy 10 mlrd so‘m mablag‘ sarflanishi mumkin. |
| 15. | Loyihani davlat tomonidan emas, balki DXSH mexanizmi orqali amalga oshirishning afzalliklarini asoslab bering:<br>Madaniyat markazini barpo etishda xususiy investorlarni mablag‘larini jalb etish orqali Davlat budjeti yukini kamaytirish shuningdek, barpo etiladigan madaniyat markazi xususiy sherik zimmasiga yuklatilishi natijasida budjet mablag‘lari tejab qolinadi.<br>Madaniyat markazida faoliyat olib boradigan madaniyat xodimlarining ish haqlari davlat budjetidan qoplab beriladi. Binoni saqlash va texnik xodimlar ish haqlari xususiy sherik tomonidan qoplanadi hamda barcha qurilish va rekonstruksiya ishlari xususiy sherik tomonidan amalga oshiriladi. |
| 16. | Tashabbus qilingan loyiha iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni / muammolarni hal etishga qaratilganmi?<br>Ha ☒ Yo‘q ☐<br>**Iqtisodiy samara:** Madaniyat va xizmat ko‘rsatish majmuasi tashkil etilishi natijasida qo‘shimcha ishchi o ‘rinlari yaratiladi,<br>**Ijtimoiy samara:** Imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalarning farzandlari uchun 50% gacha arzonlashtirilgan narxlarda xizmatlar taqdim qilinadi.<br>**Infratuzilmaviy samara:** mavjud bino madaniyat markazi sifatida faoliyat olib borish uchun belgilangan talablarga javob bermasligi, jismonan eskirganligi sababli bino qayta rekonstruksiya qilinadi.<br>Zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan bino shaharsozlik normalari va qoidalari asosida qurib jihozlanadi. |
| 17. | Taklif etilayotgan loyihalar bo‘yicha faoliyat davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari tomonidan amalga oshiriladimi?<br>Ha ☐ Yo‘q ☒<br>Agar “Ha” javobini belgilagan bo‘lsangiz, fikringizni batafsil asoslab bering: |
| 18. | Taklif etilayotgan loyiha bo‘yicha taqdim etiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati va (yoki) qamrab olish darajasining amaldagi ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori va (yoki) innovatsion yondashuvni o‘z ichiga oladimi?<br>Ha ☒ Yo‘q ☐<br>Mavjud madaniyat markazi binosida qo‘shimcha tijoriy xizmatlar tashkil qilish natijasida qamrov hajmi oshadi. Xizmatlar va unga bo‘lgan talab kengayadi. |

| | |
|---|---|
| 19. | DXSH obyektiga bo'lgan mulk huquqi davlat sherigiga tegishlimi?<br>Ha ☒ Yo'q ☐<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, fikringizni batafsil asoslab bering:<br>DXSh asosida tashkil qilinishi rejalashtirilgan madaniyat markazi madaniyat vazirligining tizim tashkilotiga tegishli kadastr hujjatiga muvofiq. |
| 20. | Loyiha uchun xususiy sektor tomonidan sarmoya va/yoki tajriba jalb qilinyaptimi?<br>Ha ☒ Yo'q ☐<br>Loyihani amalga oshirish uchun xususiy sherik tomonidan o'z mablag'lari hamda jalb qilingan kredit mablag'lari asosida 5 mlrd so'm jalb qilinishi rejalashtirilgan. |
| 21. | Taklif etilayotgan loyiha xorijiy yoki mahalliy tajribaga asoslanadimi?<br>Ha ☒ Yo'q ☐<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, izohlang.<br>Madaniyat vazirligi tomonidan ta'mirtalab, faoliyati qoniqarsiz va bo'sh turgan madaniyat markazlarini DXSh asosida tadbirkorlik subyektlari mablag'lari hisobidan qayta tashkil etish va faoliyatini tiklash mexanizimi joriy qilingan. |
| 22. | Tashabbus ko'rsatilgan loyiha doirasida ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish nazarda tutilganmi?<br>Ha ☐ Yo'q ☒<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, izohlang. |
| 23. | Tashabbus ko'rsatilgan loyiha tomonlar uchun maqbul bo'lgan mutanosib foydani ta'minlab bera oladimi?<br>Ha ☐ Yo'q ☒<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, izohlang. |
| 24. | Loyihani amalga oshirish uchun yer uchastkasiga zarurat bormi?<br>Ha ☒ Yo'q ☐<br>Madaniyat markazi 1 000 kv.m, yashil hudud va yo'laklar uchun 200 kv.m |
| 25. | a). Loyihani amalga oshirish natijasida ijtimoiy muammolar kelib chiqish ehtimoli mavjudmi?<br>Ha ☐ Yo'q ☒<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, izohlang.<br>Asoslantirish uchun tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting. |
| | b). Loyihani amalga oshirish natijasida ekologik muammolar vujudga kelish ehtimoli mavjudmi?<br>Ha ☐ Yo'q ☒<br>Agar "Ha" javobini belgilagan bo'lsangiz, izohlang.<br>Asoslantirish uchun tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting. |
| 26. | Davlat sherigi tomonidan (DXSh loyihasi doirasidan tashqarida) amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ish hajmlarini ko'rsating:<br>Suv ta'minoti obyektlarini qurish ☐<br>Gaz ta'minoti obyektlarini qurish ☐<br>Elektr ta'minoti qurilmalariga ulanish ☐ |

| | |
|---|---|
| | Kirish yo'llari ☐<br>Transport bog'lanishi ☐<br>Boshqa<br>Mazkur loyiha bo'yicha infratuzilmalarni yaratish ishlari, xususan, suv ta'minoti, gaz ta'minoti ob'ektlarini qurish, elektr ta'minoti qurilmalariga ulanish, kirish yo'llarini qurish va transport bog'lanishini ta'minlash xususiy sherik tomonidan amalga oshiriladi. |
| 20. | Manfaatdor tomonlarni sanab o'ting:<br>Xususiy sherik - "Islomjon-Madad-Nur" MChJ;<br>Davlat sherigi: Madaniyat vazirligi |
| 21 | Davlat sherigi tomonidan loyihani amalga oshirish uchun mas'ul etib tayinlangan shaxs haqidagi ma'lumotlarni taqdim eting. Agarda imkoni bo'lsa, loyihani amalga oshirish guruhi hamda DXSh loyihasi menedjeri, guruh a'zolarining lavozimi va majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni ham taqdim eting. |

| | |
|---|---|
| Mas'ul etib tayinlangan shahs | Investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi |
| F.I.Sh. | T.Idrisov |
| Lavozimi: | Yetakchi mutaxassis |
| Tel: | +998 55 502-33-77 |
| Elektron pochta manzili: | madaniyat.devon@exat.uz |

**"Kiritildi"**
**"ISLOMJON-MADAD-NUR"**
**MChJ rahbari**

**I.Ashurmatov**

m.o'.

**"Kelishildi"**
**Jizzax viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig'i**

**A.Darxanov**

m.o'.

**"Kelishildi"**
**Jizzax viloyati G'allaorol tumani hokimi**

**J.Oqboyev**

m.o'.